

## O'ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLAR MADANIY HAYOTIDAGI ISLOHOTLAR VA MA'NAVIY YUKSALISH OMILLARI

Kadirova Yakitjan Buvabayevna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, v.b. dotsent (PhD)

**Annotasiya:** Jahon xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mislsiz darajada rivojlanib, globallasuv jarayonining qamrovi g'oyat keng ko'lamda kuchayib borayotgan hozirgi davrda insoniyat kelgusi hayotga, ayniqsa, dunyo sivilizatsiyasining taqdiri va barqarorligiga ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ilmiy-adabiy, ma'naviy-madaniy merosni keng ko'lamda o'rganish va targ'ib etish bilan bevosita bog'liq. Istiqlol yillarida O'zbekistonda milliy qadriyatlar va madaniy merosga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ularga bo'lgan munosabat o'zgardi hamda moddiy madaniy merosdan foydalanish sohalari kengaydi. Jumladan, madaniy meros ob'ektlarni saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish hamda ulardan foydalanish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, tarixiy ma'naviy meros yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlar yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Janubiy viloyatlar, islohotlar, ilm fan, millat, xalq, yoshlar, tarixiy ma'naviy meros, ma'naviy-axloqiy tarbiya, moddiy-madaniy meros ob'ektlari, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik.

**“Biz o‘z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish,**

**Yangi O‘zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida  
qo‘ydik.”**

**Sh.Mirziyoyev**

**KIRISH:** Bugungi kundagi amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar vatanimizning istiqboli, tinchligi, obodligiga yo'naltirilgan. Respublikamizning bu borada taraqqiyoti va farovonligini, o'zining hayot faoliyati hamda kelajagi bilan uzviy bog'lab maqsad sari intiladigan intellektual yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifalardan sanaladi. Ilm fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi.

Insonlarning yashash shart sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, vatanini sevish kabi ijobiy hislatlarni jo qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Shu bois ham jamiyat taraqqiyotiga tegishli bo'lgan barcha sohalarga alohida ahamiyat berilib madaniy hayotidagi islohotlar amalga oshirilmoqda. [4].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mislsiz darajada rivojlanib, globallasuv jarayonining qamrovi g'oyat keng ko'lamda kuchayib borayotgan hozirgi davrda insoniyat kelgusi hayotga, ayniqsa, dunyo sivilizatsiyasining taqdiri va barqarorligiga ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ilmiy-adabiy, ma'naviy-madaniy merosni keng ko'lamda o'rganish va targ'ib etish bilan bevosita bog'liq bo'lib turibdi. [5]

Bu borada Yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar natijasida, xalqning milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, an'ana va qadriyatlarga hurmat kabi belgilari mustahkamlandi. Shu asosda muayyan bir etno-regional makonda istiqomat qilayotgan xalq va elatlarda milliy mansublik va o'zlikni anglashga bo'lgan ehtiyojning yuksalishi bilan izohlanadi. Bunday ehtiyoj bugungi tarixiy taraqqiyot bosqichida adolatli davlat siyosati va jamiyat manfaatlari asosida tobora rivojlanib, takomillashib bormoqda. [6]

Chunki har bir xalqning milliy o'zligini anglashi uning milliy barqarorligini ta'minlaydigan omillardan biri sanaladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash" [1] ni rag'batlantirishga doir muhim vazifalar belgilandi. Shu bois ham madaniy hayotidagi islohotlar va ma'naviy yuksalish milliy identiklik tizimining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ijtimoiy tuzilmalar evolyusiyasini tizimli tadqiq etish, alohida dolzarblik kasb etadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, etnos yoki millatning ma'naviy yuksalishi avvalambor davlat va xalq manfaatlari bilan chambarchas bog'liq "o'zlikni anglash" tuyg'usi asosida shakllanadi. Chunki o'zlikni anglash orqali nafaqat milliy, etnik manfaatlarni, balki shu bilan birga, milliy jipslilikni vujudga keltiruvchi mental xususiyatlarni ham maqsadga yo'naltirish mumkin. Shuningdek, millat xarakteri va mentalitetining ijtimoiy-ma'naviy jihatlarini anglashning asosi hamdir. Zero, ma'naviyat sohasidagi milliy mafkuramizni shakllantirish, yoshlarni madaniy merosimiz, boy an'analarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, ulug' yurtimiz va istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasining

muhimligi O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan siyosatning naqadar to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar tafakkuri-dunyoqarashini ma‘rifat asosida shakillantirish va tarbiyalash yuzasidan, “dinimiz tarixi, buyuk allomalar va aziz-avliyolarimiz merosini o‘rganish va targ‘ib etish, yurtimizni, uning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, ulug‘ olimu ulamolarini, bebaho ma‘naviy merosimizni to‘liq o‘rganish” [2] vazifasining kun tartibiga qo‘yilishi tadqiqotchilar oldiga yangi ilmiy izlanishlarni boshlab berdi.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak O‘zbekiston hududida turli davrlarda ijtimoiy va siyosiy jarayonlar turlicha kechganligini kuzatamiz. Agar biz ularni tahlil qiladigan bo‘lsak, Aleksandr Makedonskiydan tortib turk xoqonligi, eroniylar, xitoyliklarning yuechjilar qabilasi, arablar istilosi, mo‘g‘ul bosqini, Shayboniylar va Chor Rossiyasigacha olish mumkin. Bunday vaziyatda, albatta, yurtimiz hududida azaldan yashab kelayotgan elatlarning madaniyati, urf-odatlarini, rasm-rusumlari, tili va boshqa xususiyatlarida ma‘lum o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan birga, tarixiy obidalar soni ham borti bordi.

Ma‘lumki, O‘zbekistonda 7-8 mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud bo‘lib, 200 ortig‘i YuNESKO ro‘yxatida, islom madaniy obidalarini asrab - avaylash va tarixiy obidalariga boy davlat sifatida O‘zbekiston 9-o‘rinni egallab turibdi. Madaniy tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ob‘ektlardan 545 tasi arxitektura, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi sa‘nat va 5500 dan ortig‘ini orxeologik obidalar tashkil etadi. [7]

- **Tahlil va natijalar.** Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi YUNESKO tashkilotining teng huquqli a‘zosi sifatida. [8] Xivadagi Ichanqal‘a qo‘riqxonasida (1990) hamda Buxoroning tarixiy markazida (1993) joylashgan yodgorliklar, Shahrisabiz shahridagi Temur va Temuriylar davri me‘moriy yodgorliklari (2001) va Samarqand shahri markazidagi tarixiy yodgorliklar (2002) Xalqaro Jahon Madaniy Meros Ko‘mitasiga 13 ta mashhur yodgorliklar sifatida ro‘yhatga olindi. Surxondariyodagi Oq ostona bobo, Hakim Termiziy me‘moriy majmualari, Qirg‘iz sarayi saroyi hamda respublikadagi Arab ota, Ishratxona, Mirsaid, Bahrom maqbaralari, Bohoyddin, Chor Bark, Shayx Muxtor Valiy majmualarishuningdek, Raboti Malik, Jarqo‘rg‘on va Vobkent minoralari, jahon moddiy yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilishi uchun arizalar taqdim etildi. [9].

Aytish mumkinki, O‘zbekistonning har bir hududi tarixiy jarayonlarda ham, bugungi kunda Qashqadariyo viloyatida jami 1321 ta moddiy-madaniy meros ob‘ektlari mavjud bo‘lib, ulardan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylari mavjud. [3] Birgina Surxondariyoda 561 ta madaniy merosga oid tarixiy yodgorliklar mavjud bo‘lib, ularning yosh davri

paleolit bosqichidan, to XX asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Shulardan 44 tasi arxeologik, 36 tasi arxitektura va muqaddas qadamjolar, 39 tasi monumental va san'at, 42 tasi diqqatga sazovor turistik joylarni tashkil etadi. [10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil fevral PF-4947 son, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 16 aprel PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari", 2021 yil 6-apreldagi PF-6199-son "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2021 yil 3 martdagi 119-son "Moddiy-madaniy meros obektlari va YUNISKONing Umumjahon merosi po'yhatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaorlari, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini kengytirishda, jahon taraqqiyotining qadimiy beshigi hisoblangan ona zaminimizdan yetishib chiqqan allomalarning beqiyos merosini tiklash, o'rganish va buni xalqqa to'la-to'kis yetkazishda ahamiyati kattadir. Zero, buyuk alomalarimiz milliy qadriyatlarimizning oliy belgisi sifatida, vatanparvarlikni ifoda etishda namuna ko'rsatganlar. Forg'oniyalar, xorazimiylar, buxoriylar qatorida Qashqadariyo va Surxondariyo vohasida termiziylar, nasafiylar, keshiylar o'zlarining taxalluslarini shu yurt nomi bilan bog'laganligi ham bir ibratdir. Shuningdek, Abu Iso Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari olimlari tomonidan Nasaf va Termiz olimlarining asarlari o'rganilinib, nafaqat O'zbekistonga, balki butun dunyo olimlariga ajdodlarimizning qilgan ishlari taqdim etildi. [11]

Jumladan, Madaniyat ishlari Vazirligi qoshida Yodgorliklarni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan 1992 yillarda Madaniy merosni asrash qonuni ishlab chiqildi [12] va O'zNIPI instituti va me'mor taminlash Master uyushmasiga ta'mirlash va tiklash ishlari yuklatildi. [13] 1993 yil 5 yanvarda Amir Temur va Mirzo Ulug'bek nomlari bog'liq me'moriy yodgorliklarni ta'miri bo'yicha hamda Jahongir maqbarasini qoldiqlarini geodrogeologik sharoitini o'rganish, uni muhofaza etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. [14]

- **Xulosa va takliflar.** Istiqloq yillarida xalqimizning boy madaniy va ma'naviy merosini tiklash va qadrlashga alohida e'tibor berilgan. Ularning jahonga mashhur namoyandalari - Alisher Navoiy (1991), Bahouddin Naqishband (1993), Mirzo Ulug'bek (1994), Amir Temur (1996), Imom Buxoriy (1998), Ahmad Farg'oniy (1998), Jamoliddin Manguberdi (1999), Burhoniddin Marg'inoniy (2000), Imom Motrudiy (2000), Abduxoliq G'ijduvoni (2003), Xoja Axror Valiy (2004) kabi alloma va davlat arboblarning yubileylari YuNESKO bilan hamkorlikda nishonlash an'anaga aylandi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan

mamlakatimiz qadimgi shaharlari-Buxoro va Xivaning 2500 (1997) yilligini nishonlash io'g'risida 1996 yil 3 yanvarda qaror qabul qilindi. Alpomish dostoning 1000 yilligi (1999), Avesto kitobining 2700 yilligi (2001), Termiz shahrining 2500 yilligi (2002) , Shag'risabz (2002) va Qashqadariyoning 2700 (2006) yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi (2007) va Toshkent shahrining 2200 yilligi (2009) YuNESKO bilan hamkorlikda nishonlandi. Bu kabi tantanalar ko'p millatli xalqimiz, birinchi navbatda yoshlarni ma'naviy va ma'rifiy kamolatini mustahkamlashda dasturu amal bo'lib hizmat qiladi. Tarixiy ma'naviy meros yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston birinchi prizidenti ta'kidlaganidek: "Jamiyatning haqiqiy boyligi, bu inson, inson avlodidir, har qanday ulug' maqsadlarga erishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, barkamol avlodga bog'liqdir". Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demakdir.

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaydiki: "Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim"

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28-12-2018. <https://president.uz/uz/lists/view/228>
2. Ўзбекистон Республикаси Призиденти Ш.М.Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилотининг фан ва технологиялар бўйича биринчи саммитидаги нутқи 2017 йил 10 сентябрь
3. Ўзбекистон Республикаси Президент Маҳкамаси томонидан тасдиқланган қарор ва фармонлар ижроси юзасидан Қашқадарийё вилоятининг туризм соҳасида эришган натижалари тўғрисида маълумот// Қашқадарийё вилояти маданий мерос бошқармаси маълумоти.2021й. 14.03.
4. Кадилова Х. Б. Миллий идентиклик ва миллий ўзликни англаш муаммоларини социологик тадқиқ этиш методологияси //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – №. SI-1.
5. КАДИРОВА Х. МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИКГА ИЖТИМОЙЛАШУВ, МАДАНИЙ, ТАРИХИЙ МЕРОС ВА ТИЛИНИНГ

ТАЪСИР ЭТИШ ХУСУСИЯТЛАРИ //UNIVERSITETI XAVARLARI, 2022,[1/9] ISSN 2181-7324.

6. Қодирова, Х. Б. (2015). МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ. *FORMATION A CULTURE OF INDEPENDENT THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS*, 86.

7. Джалилов О.З. Проблемы и перспективы развития историко-культурного туризма в Узбекистане (1991-1910 гг.) автореф. Дисс. канд. ист. наук. -Т.: 2011. Б.15

8. Хашимов М. ЮНЕСКО фаолиятида диний бағрикенглик тамойиллари (Ўзбекистон Республикаси миқёсида) Тар. фан. номз. ... дисс. автореф. -Т.: Тошкент Ислон унверситети, 2009. -Б.11-13

9. Мансуров Р. Меъморий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш // Мозидан садою-Т.: №3 Б.4-5

10. Alimardonova Z.M. Modern concept of tourism development in Surkhamdarya region// Central Asian Jurnal of innovations on tourism management and finance. 2021.-Pp-89-99

11. Чориев А., Раҳмонов М. Марказий осиё цивилизация тизимида ўзбекистон тарихи ва маданияти. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари . “Қарши давлат университети” 2022 йил. 14 май. Б.326-331.

12. ЎзМА М-7 жамғарма, 1-рўйхат, 58-иш, 18-варақ.

13. ЎзМА М-7 жамғарма, 1-рўйхат, 61-иш, 6-варақ.

14. ЎзМА ВМ ижтимоий масалалар, фан ва маданият бўлими мудри Ю.Шодиметов. ЎзМА, М-7 жамғарма, 1-рўйхат, 60-иш, 35-варақ.

15. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. - Т.: “Шарқ”. 2009. 541-бет